



SO'ZLASHUV NUTQINI KOGNITIV NUQTAYI NAZARDAN O'RGANISH

Asadullayeva Diyora Anvar qizi

*Sharof Rashidov nomidagi Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti
filologiya tillarni o'qitish: o'zbek tili 3-kurs*

asadullayevadiera@gmail.com

+998886119323

Annotatsiya: *Ushbu maqolada so'zlashuv nutqi va kognitiv tilshunoslik o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. So'zlashuv nutqi kundalik muloqot jarayonida yuzaga keladigan nutqiy hodisa sifatida ko'rib chiqilib, uning kognitiv jarayonlar bilan aloqasi yoritiladi. Tadqiqot jarayonida badiiy matn misolida konsept, ssenariy, freym, presuppozitsiya va geyshtalt kabi kognitiv birliklar aniqlanib, ularning matn mazmunini anglashdagi o'rni tahlil qilinadi. O'tkir Hoshimovning badiiy matni asosida savdo jarayoni tasviri orqali "mehnat", "adolat", "savdo" kabi konseptlar ochib beriladi. Shuningdek, dialoglar orqali yashirin ma'no qatlamlari va ijtimoiy qarashlar namoyon bo'lishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari badiiy matnni kognitiv yondashuv asosida o'rganish til va tafakkur o'rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurroq anglash imkonini berishini ko'rsatadi*

Kalit so'zlar: *So'zlashuv nutqi, kognitiv tilshunoslik, konsept, ssenariy, freym, presuppozitsiya, geyshtalt, kognitiv birliklar, badiiy matn tahlili, til va tafakkur.*

KIRISH

"So'zlashuv nutqi" deb yuritilayotgan lingvistik hodisa kundalik turmushda, kishilarning o'zaro aloqa jarayonlarida amal qiluvchi nutqiy jarayondir. So'zlashuv nutqi tilshunoslarning ishlarida qayd etilishicha, birinchi navbatda dialogik, monologik nutq ko'rinishlari shaklida yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan yetakchi nutqiy shakl birdan ortiq, ya'ni ikki yoki undan ortiq kishilarning o'zaro so'zlashuvi, fikr olishuvlarida yuzaga keluvchi holatdir [1.9]. Sozlashuv nutqi va kognitiv tilshunoslik o'rtasidagi bog'liqlik — bu "til qanday ishlatilishi" bilan "miya uni qanday rejalashtirishi" o'rtasidagi ko'prikdir. Kognitiv nuqtayi nazardan sozlashuv nutqi shunchaki so'zlar almashinuvi emas, balki mental operatsiyalar mahsulidir. So'zlashuv nutqi va kognitiv jarayonlar o'rtasidagi bog'liqlikni oddiy, hayotiy misolda ko'rib chiqamiz:

Vaziyat: Ikki do'stning ko'chada uchrashib qolishi.

Muloqot:

— Qachon?

— Ertaga, o'sha joyda.

Agar do'stlardan biri "Ertaga... haligi... anavida ko'rishamiz" desa, bu uning miyasida kerakli so'zni (masalan, kofexona nomini) qidirish jarayoni ketayotganidan darak beradi. Bu kognitiv yuklamaning nutqdagi aksidir.



ASOSIY QISM

Kognitiv tilshunoslikda so'zlovchi yoki nutq qaratilgan shaxsning ichki kognitiv tuzilishi va dinamikasini tavsiflash va izohlash asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Kognitiv tilshunoslikning ko'zda tutgan vazifalari jumlasiga til hodisalarini sistemali ifodalash emas, balki ushbu tizimni tadqiq etish va uning asosiy tamoyillarini joriy qilish ham kiradi. Kognitiv tilshunos uchun til bilimining mental reprezentatsiyasi qanday bo'lishi lozimligi va bu bilim kognitiv qanday qayta ishlanishi hamda «kognitiv haqiqat» qanday bo'lishini tushunish muhim hisoblanadi. S.Muhamedovanning ko'rsatishicha, kognitiv tilshunoslikning bugungi kunda quyidagi asosiy yo'nalishlari mavjud:

- 1) Bilishning biologik nazariyasi;
- 2) Bilishning biomadaniy nazariyasi;
- 3) Sun'iy intellekt yaratish nazariyasi;
- 4) Kognitiv semantika yo'nalishi.

Kognitiv lingvistikaning shakllanishida tilshunoslikdagi semasiologik, semasiologik grammatika, mantiqiy tahlil, nutqiy tafakkur, onomasiologik, psixologik, germeneytik yo'nalishdagi tadqiqotlar ilmiy nazariy asos bo'lib xizmat qildi.

Xullas, zamonaviy kognitiv tilshunoslik til vositalarining kognitiv tuzilishini o'rganuvchi tilshunoslik yo'nalishidir. Bu yo'nalishdagi lisoniy tahlil inson ongidagi kognitiv tuzilmalar to'g'risida muayyan ilmiy ma'lumotlar beradi. Bugungi kunda tilshunoslikning mantiq, psixologiya, bilish nazariyasi kabi kognitiv sohalar bilan hamkorlikka ehtiyoji yanada kuchaydi. Bu hamkorlik, bir tomondan, tilshunoslikni inson tafakkur faoliyati muammolari bilan shug'ullanuvchi kognitologiya fani tarmog'iga kiritgan bo'lsa, ikkinchidan, tilshunoslikning o'zini ham yana bir yangi soha – kognitiv lingvistika sohasi bilan boyitdi [2. 6].

Tahlil va natijalar.

Tilshunoslikda kognitiv yondashuv til va tafakkur, so'z ma'nosi, uning o'zaro munosabati muammolarini, kategoriyalash va konseptlashtirish orqali bilimning turli strukturalarini shakllantirish va ularni tilda namoyon qilish kabi masalalar rivojlana bormoqda. Tilda kategoriyalash jarayoni u yoki bu munosabatdagi o'xshash hodisalarni kattaroq tushunchalar, kategoriyalarga birlashtirish uchun yo'naltirilgan. Shu bilan birga bilish jarayoni sifatida kategoriyalash – bu ob'ekt yoki hodisani ma'lum kategoriyaga xayoliy nisbat berish bilan bog'liqdir.

— Uch so'm beraman, boboy! — dedi Lyova kattakon tarvuzni tanlab.

— Tarozi qo'y, bolam, — dedi chol ruschani chaynab gapirib. — Kilosi yetmish tiyin.

— Yetmish tiyin? — Lyova ajalandi. — Kallang ishlaydimi, boboy! Uyalmaysanmi?

Chol indamasdan tarvuzni Lyovaning qo'lidan oldi-da, taroziga qo'ydi. — O'n ikki kilo,

— dedi og'zidagi ko'kimtir narsani tuflab. — Sakkiz so'm qirq tiyin... Mayli, sakkiz so'm beraqol.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



— Gapini qara, Grisha! — dedi Lyova achchiqlanib. — Bitta tarvuzni sakkiz so‘m deydi, spekulyant!

Razm solib qarasa, tarvuzlar tog‘dek uyilib yotibdi. Har bittasini sakkiz so‘mdan sotsa, millioner bo‘lib ketmaydimi bu?

— Ey boboy! — dedi Grisha ensasi qotib. — Spekulyatsiya uchun statya bor. Bilasan-a? — Men ispiqulon emasman! — dedi chol tag‘in ruschani rasvo qilib. — Sam, sam ekkanman! Sladkiy arbuz... Xohlamasang, ana, boshqa joydan olaver.

Ehtimol, shu bilan gap-so‘z tugasa — olam guliston edi. Boyadan beri nariroqda turgan boshyalang,plash kiygan yigitcha kutilmaganda savdoga aralashdi.

— Bu oqsoqol spekulyant emas, — dedi qandaydir asabiy ohangda. — Mehnat qilganidan keyin sotadi-da molini! Yaxshiroq qara, spekulyantga o‘xshaydimi shu odam?

Allaqanday bir talabaning gapga qo‘shilishi Grishaning g‘ashini keltirdi.

— Quloq sol, — dedi g‘ijinib. — Nega meni senlaysan?

Talaba pinagini buzmadi.

— Bo‘lmasa, nega sen otang tengi odamni senlaysan?! Sening yurtingda tarvuzning bir tishlami sakkiz so‘m. O‘qiganman o‘sha yoqlarda! Hammasini bilaman. Boyadan beri indamay turgan Misha gapga endi qo‘shildi:

— Juda aqlli bo‘p ketibsanmi? Bultur tarvuzning kilosi yigirma tiyin edi!

— Unisi bultur edi, — dedi talaba. — Bu yil boshqacha. O‘sha tomondan keladigan traktorning zapchasti o‘n baravar oshdi. Nima qilsin dehqon! Grishaning qoni qaynab ketdi.

— Nari tur... Sendaka “akademikni!” Bir tepgan edi, tarvuz paqqa yorilib, shimining pochasiga qip-qizil sharbat sachradi.

Birpasda hamma yoq qiy-chuv bo‘lib ketdi.

— Qoch! — dedi Lyova. — O‘ldiradi bular! [2.22.O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar]

1. Konsept (tushuncha)

Konsept – matnda asosiy ma’no markazi bo‘lgan tushuncha.

Matnda asosiy konseptlar:

1. “Mehnat” konsepti

“Bu oqsoqol spekulyant emas... Mehnat qilganidan keyin sotadi-da molini!” Bu yerda dehqonning o‘zi ekib, mehnat qilib mahsulot yetishtirgani ta’kidlanadi.

2. “Adolat / nohaqlik” konsepti

“Yaxshiroq qara, spekulyantga o‘xshaydimi shu odam?”

Talaba cholni himoya qilib, adolatni talab qiladi.

1. “Savdo / pul” konsepti “Kilosi yetmish tiyin”

2. “Sakkiz so‘m qirq tiyin”

Bu yerda iqtisodiy munosabat (sotish-olish) konsepti mavjud.

3. Ssenariy (voqea ketma-ketligi)

Ssenariy – odatda sodir bo‘ladigan voqealar ketma-ketligi.



Matnda bozor savdosi ssenariysi bor: Xaridor keladi. Narx so'raydi. Sotuvchi aytadi. Bahs chiqadi. Mojaro yuz beradi. Matndan misollar:

“Kilosi yetmish tiyin” → narx aytiladi

“Kallang ishlaydimi, boboy!” → bahs boshlanadi

“Bir tepgan edi, tarvuz paqqa yorilib...” → mojaro kuchayadi

3. Freym

Freym – ma'lum vaziyat bilan bog'liq tushunchalar majmuasi.

Bu matnda “bozor savdosi freymi” mavjud.

Freym elementlari: Freym elementi

Matndan misol

Sotuvchi

chol

Xaridor

Lyova, Grisha

Mahsulot

tarvuz

Narx

“kilosi yetmish tiyin”

Savdo vositasi

tarozi

Misol: “Taroziga qo'y, bolam” Bu savdo jarayonining tipik freymi.

4. Presuppozitsiya (yashirin ma'no)

Presuppozitsiya – gapda aytilmagan, lekin oldindan ma'lum deb hisoblangan ma'no.

Misollar:

1. “Spekulyatsiya uchun statya bor. Bilasan-a?”

Presuppozitsiya:

→ spekulyatsiya jinoyat hisoblanadi.

2. “Sakkiz so'm deydi, spekulyant!”

Presuppozitsiya:

→ juda qimmat sotayotgan odam spekulyant bo'lishi mumkin.

3. “Otang tengi odamni senlaysan”

Presuppozitsiya:

→ kattalarga hurmat bilan gapirish kerak.

5. Geyshtalt

Geyshtalt – voqea yoki obrazni butun holda idrok qilish.

Matnda “bechora mehnatkash chol obrazi” geyshtalt sifatida shakllanadi.

Buni quyidagi tasvirlar yaratadi:

“ruschani chaynab gapirib”

“og'zidagi ko'kimtir narsani tuflab”

“sam, sam ekkanman”



Bu detallar orqali o'quvchi cholni oddiy, sodda dehqon sifatida butun obrazda tasavvur qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mazkur matn kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinganda unda bir qator muhim kognitiv birliklar – konsept, ssenariy, freym, presuppozitsiya va geyshtalt elementlari yaqqol namoyon bo'lishi kuzatildi. Matnda savdo jarayoni tasviri orqali “mehnat”, “adolat”, “savdo” kabi konseptlar ochib beriladi. Voqealar ketma-ketligi esa bozor muhitiga xos bo'lgan savdo ssenariysini aks ettiradi. Shuningdek, sotuvchi, xaridor, mahsulot, narx va tarozi kabi komponentlar savdo freymini tashkil etib, matn mazmunini tushunishda muhim rol o'ynaydi. Dialoglar orqali yashirin ma'no – presuppozitsiyalar ham yuzaga chiqadi, ya'ni kattalarga hurmat, mehnatning qadri va spekulyatsiyaga nisbatan salbiy munosabat kabi ijtimoiy qarashlar ifodalanadi. Bundan tashqari, asarda tasvirlangan chol obrazi turli detallarning uyg'unligi orqali o'quvchi ongida yaxlit geyshtalt sifatida shakllanadi. Shu jihatdan mazkur matn badiiy matnda kognitiv birliklarning qanday namoyon bo'lishini ko'rsatadigan muhim misollardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шахриёр Сафаров. КОГНИТИВ ТИЛШУНОСЛИК «Сангзор» нашриёти Жиззах - 2006.Б.7-10
2. Toshbekova Feruza “So‘zlashuv nutqi o‘ziga xos nutqiy sistema ekanligi” mavzusida bajarilgan Bitiruv malakaviy ishi, Jizzax:2013, 9 b.
3. Shodieva Shoxida Inatovna TILSHUNOSLIKDA KOGNITIV YONDASHUV // Education and innovative research 2023 y.7-son.
4. Kaipbergenova Dilbar Orakbaevna I. Karimov Nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti Amaliy Ingliz Tili Kafedrasi Katta O'qituvchisi TILSHUNOSLIKDA OLAMNING LISONIY VA KONSEPTUAL MANZARASI TUSHUNCHALARI //Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. Date: 19th November., 2023
5. Ҳошимов Ў.Тушда кечган умрлар.Тошкент,2002.-Б.142